

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17013235>

MINTAQА EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARINI EKONOMETRIK BAHOLASH

Raximov To'xtabek Jumaboyevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, PhD., dotsent

Tel.: +998939222184 email: tuxtabek.r@urdu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8658-8946>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqqa iqtisodiyoti uchun mavjud bo'lgan globallashuv sharoilarda viloyat eksport salohiyati va uning real amalgalari oshirilishi jarayoni, mintaqaning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari baholash va uni rivojlanadirish bo'yicha kompleks yondashuvlari, eksport salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, mintaqaning eksport salohiyatini oshirish uchun nazariy tahlillar, iqtisodiy modellashtirish va amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish, mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rovijlantirishda investitsiya muhitini yaxshilash orqali chet el sarmoyalalarini jalb etish, mintaqada eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, mintaqqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlanirishda eksport salohiyati samaradorligini oshirish, mintaqqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutuvchi Xorazm viloyatining ma'lum eksport salohiyatini oshirish modellarini baholash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Mintaqa, eksport, salohiyat, eksport salohiyati, baholash, ekonometrik model, qo'shimcha mahsulot, modellashtirish, omil belgi, natijaviy belgi.

Kirish

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uning zamонавиy modellarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida 28-maqсад qilib respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish belgilangan⁶⁶. Mazkur vazifalarni amalga oshirish orqali mintaqalar eksport salohiyatini oshirish respublikamizdagi ustuvor yo'nalishiga aylanadi. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi eksport salohiyatini oshirishga bog'liq. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz mintaqalarini iqtisodiyotini rivojlanirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish modellari shakllanriladi. Bu borada mintaqqa iqtisodiyotini rivojlanirishda eksport salohiyatidan samarali

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

foydanishga qaratilgan ekonometrik modellar yaratish muammolarini ilmiy o‘rganish va tahlil qilish davr talabi bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, olib borilgan tadqiqotlar mintaqqa eksport salohiyati va viloyat eksportini amalga oshirishning haqiqiy darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tavsiflaydi. Olingan natijalar ulardan mintaqqa iqtisodiyotining eksport salohiyatini ro‘yobga chiqarish muammolarini bartaraf etishga qaratiladi. Bu orqali mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash eksport salohiyatidan samarali foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellar asosida baholashga asoslanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar A.I.Amosov, M.I.Geraskin, S.S.Yemelianov, N.A.Zaychikova, Y.V.Karachaevskaya, S.S.Kudryavseva, F.F.Galimulina, Y.N.Lomkova, A.A.Yepov, V.V.Polyakov, R.K.Shchenin, Y.V.Sotchenko, S.Y.Shirnaeva va boshqa mualliflar eksport salohiyatini ekonometrik modellarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini prognozlashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar ishlarida o‘rganilgan. Jumladan, I.I.Yeliseevoy ko‘p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatliligi va o‘rganilayotgan jarayonga mos kelishini aniqlash uchun Fisherning F-mezonidan foydalanishni tavsiya qiladi [1]. A.Dimitrios, G.Stephen ko‘p omilli ekonometrik model bo‘yicha natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanishni taklif qiladilar [2]. I.S.Abdullayev tadqiqotlarida mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlari ekonometrik usul orqali takomillashtirilgan va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishning prognoz qiymatlari aniqlangan [3]. Bundan farqli o‘laroq, hududiy rivojlanishni rejalashtirishda ssenariy yondashuvi keljakdagagi rivojlanish uchun turli xil va bir xil darajada oqilona variantlarni qurish va yaratishga imkon beradi, ular ham yaxshi tuzilgan va mantiqiydir [4]. Ssenariy yondashuv yordamida nafaqat mayjud mintaqaviy nomutanosibliklarni tenglashtirishning bashoratlari ssenariylarini ishlab chiqish, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirish ham mumkin. Modelning asosiy tuzilishi ushbu tuzilma darajalarining xususiyatlarini bog‘laydigan tenglamalar tizimi bilan to‘ldiriladi, ya’ni: daraja tenglamalari va stavka tenglamalari [5].

Asosiy qism

Mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash - murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, mintaqaning eksport imkoniyatlarini aniqlash va ularni ro‘yobga chiqarishga to‘sinqlik qilayotgan turli xil omillarni baholashni o‘z ichiga oladi. Shu orqali ishlab chiqarish xarajatlari oshishi orqali eksportni kamaytirish, logistika xarajatlarining oshishi orqali eksportni kamaytirish, infratuzilmani yaxshilash orqali eksportni oshirish, institutsional muhitni yaxshilash orqali eksportni oshirish hamda innovatsion faoliyotni oshirish orqali eksportni oshirishga erishish mumkin. Bundan tashqari, ssenariy tahlili yordamida infratuzilmaga investitsiyalarning eksportga qanday ta’sir qilishini baholash mumkin. Ushbu jarayon murakkab va ko‘p vaqt talab qiladigan ishdir. Biroq, agar to‘g‘ri amalga oshirilsa, u mintaqqa eksport salohiyatini oshirish uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Mintaqaning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini baholash va uni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi. Bu jarayon bir nechta asosiy bosqichlardan iborat bo'lib, ular nazariy asoslarni tahlil qilish, iqtisodiy modellashtirish usullaridan foydalanish va natijalar asosida aniq takliflar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash zarur. Bunda xalqaro iqtisodiy nazariyalar, jumladan, Porter raqobat afzalliklari modeli, Heksher-Olin modeli va gravitatsiya modellaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, yalpi ichki mahsulot (YAIM), sanoat ishlab chiqarishi, valyuta kursi, inflyatsiya va ishlab chiqarish xarajatlari eksport imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, institutsional omillar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, eksport qonunchiligi, davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralarini va investitsiya muhitini kabi faktorlar tahlil qilinadi. Mintaqaviy va xalqaro savdo shartlari, raqobatbardoshlik indekslari, logistika va infratuzilmaning holati ham eksport hajmini oshirishda hal qiluvchi o'rinni tutadi.

Ikkinci bosqichda iqtisodiy modellashtirish usullari qo'llaniladi. Eksport hajmining prognozini aniqlash va uning asosiy drayverlarini topish uchun turli iqtisodiy-statistik modellardan foydalaniladi. Panel ma'lumotlar tahlili (Pooled OLS, Fixed Effects va Random Effects) mintaqalar o'rtasidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi, vaqt ryadi usullari (ARIMA va VAR) esa eksport dinamikasini prognoz qilish imkonini beradi. Shuningdek, kesishma ma'lumotlar (GMM va Probit/Logit modellari) va gravitatsiya modellari orqali eksport oqimlariga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Mintaqaviy va xalqaro savdo statistikalari (UNCTAD, WTO va IMF ma'lumotlari) eksport tendensiyalarini aniqlashda asosiy manba hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda iqtisodiy tahlil natijalari asosida aniq xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi. Birinchi navbatda, eksport hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi va ularning iqtisodiy ahamiyati baholanadi. Keyinchalik esa mintaqaning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha amaliy takliflar beriladi. Bunda infratuzilmani rivojlantirish, logistika va transport tizimini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish kabi chora-tadbirlar taklif qilinadi. Shuningdek, davlat siyosati doirasida eksportga mo'ljallangan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish, investitsiya muhitini yaxshilash muhim vazifalar sifatida belgilanadi.

Shu tariqa mintaqaning eksport salohiyatini oshirish uchun nazariy tahlil, iqtisodiy modellashtirish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish asosiy bosqichlar hisoblanadi. Bu yondashuv orqali eksport hajmini oshirish, mintaqaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

Taxlil va natijalar

Darhaqiqat, eksport salohiyatini o'rganilayotgan sohadagi mavjud imkoniyatlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqsak, unda ushbu imkoniyatlarni mahsulot eksportiga nisbatan ham hisobga olinadi. Shunga asosan, eksport salohiyati ma'lum iqtisodiy va matematik modellari variantlari taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval

Eksport salohiyatini ekonometrik modellashtirishning umumlashtirilgan natijalari⁶⁷

Model nomi	Model tarkibi	Model tavsifi
Eksport salohiyatining ekonometrik modeli	$\Delta(Y_{e1}) = A * (Pr)^{a1} * (X)^{a2}, \quad (1)$ <p>bu yerda, $\Delta(Y_{e1})$ - tovarlarni qo'shimcha eksport qilish qiymati;</p> <p>R_r - ichki va eksport narxlarining nisbati;</p> <p>X - eksport ta'minotini amalga oshiruvchi tarmoqlar yalpi mahsuloti;</p> <p>A, a_1, a_2 - taxmin qilingan regressiya parametrlari</p>	Ichki bozor va jahon bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bozor sharoitlarini aks ettiruvchi omillar sifatida sotishning ichki va tashqi savdo narxlari nisbati qo'llaniladi
Narx-navoni tashqi savdoga ta'sirini hisobga oluvchi eksport salohiyati modeli	$\Delta(Y_{e2}) = B * (X / P_r)^{b1} * (R / P)^{b2}, \quad (2)$ <p>bu yerda, Y_{e2} - tovarlarni qo'shimcha eksport qilish qiymati;</p> <p>X - eksport ta'minotini amalga oshiruvchi tarmoqlarning yalpi mahsuloti;</p> <p>R_r - ichki va eksport narxlarining nisbati;</p> <p>R - dollar-so'm almashuv kursi;</p> <p>P - sotib olish qobiliyati pariteti;</p> <p>B, b_1, b_2 - regressiya modeli parametrlari</p>	Ushbu modeldan jahon bozoridagi narxlar ichki va tashqi savdo narxlari nisbati ko'rsatkichlari orqali prognoz qilish uchun maxsus va murakkab ob'ekt bo'lganligi sababli foydalanan taklif etiladi
Dollar-so'm almashuv kursi va xarid qobiliyati paritetini hisobga oluvchi eksport salohiyati modeli	$\Delta(Y_{e3}) = S * (X / R)^{c1} * (R / P)^{c2}, \quad (3)$ <p>bu yerda, Y_{e3} - tovarlarni qo'shimcha eksport qilish qiymati;</p> <p>X - eksport ta'minotini amalga oshiruvchi tarmoqlarning yalpi mahsuloti;</p> <p>R - dollar-so'm almashuv kursi;</p> <p>P - sotib olish qibiliyati pariteti,</p> <p>S, c_1, c_2 - regressiya modeli parametrlari</p>	Sotib olish qobiliyati paritetini hamda so'm va dollarning qo'shimcha nisbatlarini hisobga olgan holda narx kon'yunkturasining tashqi savdoga ta'siri hisobga olinadi
Eksport salohiyatining bir omilli modeli	$\Delta(Y_{e4}) = D * (X / R)^{d_1}, \quad (4)$ <p>bu yerda, $\Delta(Y_{e4})$ - tovarlarni qo'shimcha eksport qilish qiymati;</p> <p>X - eksport ta'minotini amalga oshiruvchi tarmoqlarning yalpi mahsuloti;</p> <p>R - dollar-so'm almashuv kursi;</p> <p>D, d_1 - regressiya modeli parametrlari</p>	Eksport salohiyati modelini bir omilli modelga soddalashtirish, uzoq muddatli prognozlash uchun qulaylik yaratish uchun qo'llaniladi
O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyatining ekonometrik modellari	$Y_1 = a_{01} + a_5 * X_5 + a_7 * X_7 + a_{17} * X_{17} + a_{19} * X_{19} \quad (5)$ $Y_2 = a_{02} + a_2 * X_2 + a_5 * X_5 + a_9 * X_9 + a_{14} * X_{14} + a_{17} * X_{17} \quad (6)$ $Y_3 = a_{03} + a_2 * X_2 + a_5 * X_5 + a_{10} * X_{10} + a_{14} * X_{14} + a_{20} * X_{20} \quad (7)$ <p>bu yerda, Y_1 - O'zbekiston Respublikasi eksportining umumiylajmi;</p> <p>Y_2 - O'zbekiston Respublikasi uzoqda bo'lgan mamlakatlarga eksport hajmi;</p> <p>Y_3 - O'zbekiston Respublikasi MDH bo'limgan mamlakatlarga eksport hajmi;</p> <p>X_1 - sanoat ishlab chiqarish indeksi,</p> <p>a_1 - sanoat ishlab chiqarish indeksiga mos keladigan regressiya modelining tortish koeffitsienti;</p> <p>X_2-X_4 - X_2, X_4 - transportning yuk aylanmasini tafsiflovchi ko'rsatkichlar,</p>	<p>Ko'rib chiqilayotgan barcha o'zgaruvchilarini vaqtinchalik qatorlari mavsumiy tarkibiy qism mayjudligi uchun tekshiriladi, u aniqlangan taqdirda yo'q qilinadi. Barcha vaqt qatorlari integratsiya tartibini aniqlash uchun statsionarlik uchun sinovdan o'tkazildi.</p> <p>Diki - Fullering kengaytirilgan testi (kengaytirilgan ADF testi) ishlataligani. Ekonometrik modellashtirish uchun vaqt qatorlari bog'liq o'zgaruvchilar bilan bir xil integratsiya tartibida bo'lgan o'zgaruvchilar tanlangan (Bu holatda integratsiyalanganlik tartibi 1 ga teng). Keyinchalik Y_1, Y_2, Y_3 o'zgaruvchilarining har biri uchun ko'p chiziqli bog'liqlik modeli quriladi</p>

⁶⁷ Muallif ishlanmasi.

		<p>a_2, a_4 - transport va qurilishning yuk aylanmasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga mos keladigan regressiya modelining tortish koeffitsientlari;</p> <p>X_5, X_6 - valyuta kursi ko'rsatkichlari;</p> <p>a_5, a_6 - valyuta kursi ko'rsatkichlariga mos keladigan regressiya modelining vazn koeffitsientlari;</p> <p>X_7-X_9 - chakana savdo aylanmasini va uning turlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;</p> <p>a_7-a_9 - chakana savdo aylanmasi va uning turlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga mos keladigan regressiya modelining og'irlilik koeffitsientlari;</p> <p>X_{10} - pullik xizmatlar hajmi; a_{10} - pullik xizmatlar hajmiga mos keladigan regressiya modelining og'irlilik koeffitsienti;</p> <p>X_{11}, X_{15}, X_{16} - narxlar indekslari;</p> <p>- a_{11}, a_{15}, a_{16} - narx indekslariga mos keladigan regressiya modelining og'irlilik koeffitsientlari;</p> <p>- $X_{12}-X_{14}$ - ijtimoiy sohani tavsiflovchi ko'rsatkichlar (mehnat bozori, ish haqi);</p> <p>- $a_{12}-a_{14}$ - regressiya modelining og'irlilik koeffitsientlari, ijtimoiy sohani tavsiflovchi tegishli ko'rsatkichlar;</p> <p>- $X_{17}-X_{20}$ - yenergiya resurslari va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining o'rtacha narxlariga mos keladigan regressiya modelining og'irlilik koeffitsientlari;</p> <p>- $a_{17}-a_{20}$ - energiya resurslari va neftni qayta ishlash mahsulotlari uchun ishlab chiqaruvchilarining o'rtacha narxlariga mos keladigan regressiya modelining og'irlilik koeffitsientlari;</p> <p>- $X_{21}-X_{25}$ - faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish indekslari;</p> <p>- $a_{21}-a_{25}$ - regressiya modelining ishlab chiqarish indekslariga mos keladigan og'irlilik koeffitsientlari faoliyat turlari</p>	
	<p>Mintaqaviy eksportning ko'p omilli ekonometrik modellari</p>	$YeX_1 = a_{10} + a_{11} * MF + a_{12} * YeXTR, (8)$ $YeX_2 = a_{20} + a_{21} * TR + a_{22} * PR_2, (9)$ $YeX_3 = a_{30} + a_{31} * L_1 + a_{32} * PR_2 + a_{33} * PLL_1, (10)$ <p>bu yerda, $YeX_1, YeX_2,$ YeX_3 - mintaqaviy eksport regressiya modellari,</p> <p>MF - o'zi ishlab chiqargan tovarlarni yuklab jo'natish hajmi;</p> <p>YeXTR - foydali qazilmalarini qazib olish bo'yicha o'zi ishlab chiqargan va yuklab jo'natilgan tovarlar hajmi;</p> <p>TR - chakana savdo aylanmasi;</p> <p>PR₂ - qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi;</p> <p>L₁ - ish bilan band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni;</p> <p>PLL₁ - aholining jon boshiga o'rtacha pul daromadlari;</p> <p>$a_{10}, a_{11}, a_{12}, a_{20}, a_{21}, a_{22}, a_{30}, a_{31}, a_{32}, a_{33}$ - regressiya modellarining tortish koeffitsientlari (8)-(10)</p>	<p>Model tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholashga indikativ yondashuvni matematik va uslubiy ta'minlashga asoslangan bo'lib, unda tanlangan omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tizimi bilan bog'liq bo'ladi</p>

<p>V.V.Leontevning tarmoqlararo balans modeliga asoslangan eksport-import modeli</p>	<p>Iqtisodiyot tuzilishi matritsasi uchun A, to'liq xarajatlar matritsasi matritsasi $D = (Ye - A)^{-1}$, bu yerda, Ye - birlik matritsasi (har bir iqtisodiyot sektorining yakuniy talab sektoriga to'lovlar miqdorini hisoblashda eksport hajmi qo'shiladi va import miqdori chegirib tashlanadi): $S'_k = S_k + YeI_k \quad (11)$ bu yerda, k = 1, ..., n - ko'rib chiqilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari soni, S'_k - eksport va import mavjud bo'lganda iqtisodiyotning k-sektorining yakuniy mahsulotli hajmi, S_k - k-sektor mahsulotlariga o'zgarmas yakuniy talab, YeI_k - eksport hajmi ($YeI_k > 0$) yoki import hajmi ($YeI_k < 0$) k - iqtisodiy sektori mahsulotlari</p>	<p>Shunday qilib, V.V.Leontevning tarmoqlararo balansi jadvalida iqtisodiyot sektorining yakuniy talab ustuni uchta ustunga bo'linadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - berilgan yakuniy talab ustuni, -eksport-import ustuni, - yakuniy mahsulot ustuni. <p>Bunday holda ushbu ustunlarning uchinchisining har bir elementining qiymati iqtisodiyot sektorining yakuniy talabining birinchi va ikkinchi ustunlari qiymatlari yig'indisiga teng bo'ladi</p>
--	--	--

Ushbu jadvalga asosan, eksportni iqtisodiy va matematik modellarini tahlil qilish ularda mamlakatning eksport salohiyati mustaqil parametr sifatida ajralib turmasligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, tadqiqot ishida eksport salohiyatini hisobga olgan holda eksportning iqtisodiy-matematik modeli taklif qilindi:

$$Ye_f = Ye_p * M_1 * M_2 * M_3 * M_4 * M_5, \quad (12)$$

bu yerda, Ye_f - mamlakatdan eksport qilinadigan mahsulot hajmining haqiqiy qiymati,

Ye_p - eksport salohiyatining joriy qiymati,

M_1 - davlatning eksport salohiyatini oshirish uchun xom ashyo salohiyatini namoyish qiluvchi multiplikator (bunda multiplikatorning qiymati $M_1 > 1$ oralig'ida hisobga olinadi),

M_2 - davlatning eksport salohiyatini oshirish uchun ishlab chiqarish va texnologik imkoniyatlarni namoyish qiluvchi multiplikator (bunda multiplikatorning qiymati $M_2 > 1$ oralig'ida hisobga olinadi),

M_3 - davlatning eksport salohiyatini rivojlantirish (mahsulotni tashqi bozorga chiqarish) uchun boshqaruv imkoniyatlarini namoyish qiluvchi multiplikator. Bu yerda, M_3 multiplikatorining qiymati 1 dan katta yoki kichik bo'lishi mumkin,

M_4 - eksport ob'ekti sifatida ko'rib chiqilayotgan mahsulotning global bozor hajmlari (talab hajmi dinamikasi) dinamikasini ko'rsatadigan multiplikator (M_4 multiplikatorining qiymati 1 dan katta yoki kichik bo'lishi mumkin),

M_5 - ko'rib chiqilayotgan mahsulotni eksport qilish uchun raqobatchilarining qarshilik kuchini ko'rsatadigan multiplikator (multiplikatorning qiymati $M_5 < 1$ oralig'ida ko'rib chiqiladi).

Shunday qilib, eksportning iqtisodiy-matematik modellarini tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, mamlakatda uning eksport salohiyati mustaqil parametr sifatida ajratilib qaralmaydi. Shu munosabat bilan, tadqiqot ishimizda mamlakat eksport hajmining haqiqiy qiymatini baholashning iqtisodiy-matematik modeli taklif qilindi va unda quyidagilar hisobga olinadi:

- eksport salohiyatining hozirgi qiymati;
- davlatning eksport salohiyatini oshirishning xomashyo imkoniyatlarini

namoyish etuvchi multiplikator;

- davlatning eksport salohiyatini oshirishning ishlab chiqarish-texnologik imkoniyatlarini namoyish etuvchi multiplikator;

- davlatning eksport salohiyatini rivojlantirishning (mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarishning) boshqaruv imkoniyatlarini namoyish etuvchi multiplikator;

- eksport ob'ekti sifatida ko'rib chiqilayotgan tovarning jahon bozor hajmlarini (talab hajmi dinamikasini) ko'paytirish dinamikasini namoyish yetadigan multiplikator;

- ko'rib chiqilayotgan tovarning eksportiga raqobatchilarining qarshilik ko'rsatish kuchini namoyish yetadigan multiplikator.

Xulosa

Shunday qilib, eksportning taklif etilayotgan iqtisodiy va matematik modeli eksport salohiyati va eksportni oshirish imkoniyatlarini eksport salohiyatini yetarli darajada amalga oshirishning imkon bo'lмаган hollardagi sabablarini hisobga olishga imkon beradi. Taklif etilayotgan iqtisodiy va matematik model tomonidan taqdim etilgan eksportni amalga oshirishda mavjud imkoniyatlar va yuzaga keladigan tahdidlarni tushunish, hozirgi vaqtda geosiyosiy o'zgarishlar dunyosida ro'y berayotgan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa shuki, mintaqqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash uchun mintaqaning eksport salohiyatini oshirish uchun bir nechta muhim yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yo'l va transport infratuzilmasini yaxshilash, logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, shuningdek, bojxona va chegara punktlarini raqamlashtirish kabi choralar eksport jarayonlarining tezkor va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mazkur tadbirlar mahsulotlarning xalqaro bozorlarga o'z vaqtida yetkazib berilishidagi to'siqlarni kamaytirishga yordam beradi. Iqtisodiy islohotlar va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralar ham eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish, qo'shilgan qiymatni oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy korxonalarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash orqali chet el sarmoyalarini jalg' etish mintaqada eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini yaratadi. Zamonaviy bozor talablaridan kelib chiqqan holda, texnologik modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarur. Industriya - 4.0 texnologiyalarini joriy etish, raqamli marketing va elektron tijorat platformalaridan samarali foydalanish, ilg'or texnik standartlar va sertifikatsiya tizimini takomillashtirish eksport mahsulotlarining xalqaro talablarga mosligini ta'minlaydi. Shu orqali mintaqaning eksport salohiyatini oshirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, texnologik modernizatsiya va yangi bozorlarga chiqish strategiyalarini amalga oshirish talab etiladi. Bu yondashuv orqali mintaqaning xalqaro bozordagi

raqobatbardoshligi ortadi va eksport hajmini oshirishga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.140-397.
2. Эконометрика: Учебник. / Под ред. И.И.Елисеевой. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 51-53 с.
3. Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. // 08.00.06 – Ekonometrika va statistika (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 5-30 b.
4. Моделі і методи соціально-економічного прогнозування: підручник. / Геєць В.М., Клебанова Т.С., Черняк О.І., Іванов В.В., Дубровіна Н.А., Ставицький А.В.Харків: ВД «ІНЖЕК», 2005. - 369 с.
5. Форрестер Дж. Динамика развития города / пер. с англ. – М.: Прогресс, 1974. - 568 с.
6. Pyrets N. M. Factors of development of export potential of Ukraine // Problems of development of foreign economic relations and attraction of foreign investments: regional aspect. – Donetsk: DonNU, 2004. – Р. 166–170.
7. Размещение производительных сил: региональная экономика: учеб. пособие / [Под ред. С. И. Дорогунцева]. – К. : КНЭУ, 2005. – 988с.
8. Фомишин С. В. Международные экономические отношения на рубеже тысячелетий : учебное пособие / С. В. Фомишин. – Херсон : Олди-плюс, 2002. – 560 с.
9. Dudchenko, M. A. et al. Dyversifikatsiia eksportnoho poten tsialu Ukrainy. Ukraina i svitove hospodarstvo: vzaiemodiia na me zhi tysiacholit [Diversification of the export potential of Ukraine. Ukraine and the world economy: the interaction on the brink of the millennium]. Kyiv: Lybid, 2002.
10. Дубков С. В. Формирование и оценка экспортного потенциала промышленных предприятий // Банкаускі весник. – 2011. – № 28 (537). – С. 29–35.
5. Шестакова О. А. Методические аспекты оценки экспортного потенциала предприятия // Вестник НТУ «ХПИ». – 2013. – № 7 (981) – С. 173–181.
11. Шестакова О.А. Методические аспекты оценивания экспортного потенциала предприятия // Вестник НТУ "ХПИ". – 2013. – № 7 (981) – С. 173–181.
12. Bykova, V. N. (2005), “The problems of formulating and managing the financial and economic potential of feed-in”, Ekonomika: problemy teoriyi ta praktyky, vol. 203, pp. 346–351.